



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/CPTU2765

TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR

Madvaliyev Orifjon Tolibovich*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**tayanch doktoranti**oriftolib@gmail.com**ORCID ID: 0009-0000-8016-4811*

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarida adabiy tahrir malakalarini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan. Sohaga oid alohida fan yo'qligi va talabalarning boshlang'ich bilim va ko'nikmalari turlicha ekani ularni yangi darsliklar va o'quv dasturlari talablariga mos tayyorlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Maqolaning maqsadi ushbu muammoni hal etishga qaratilgan, talabalarning adabiy tahrirga oid boshlang'ich darajasini aniqlashga mo'ljallangan kompleks diagnostik metodikani hamda diagnostika natijalariga asoslangan maqsadli tayyorlov bosqichi metodikasini taklif etishdir. Taklif etilayotgan yondashuv o'zbek tili ta'limi va o'zbek filologiyasi yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy tahrir, o'zbek tili ta'limi, pedagogik diagnostika, tayyorlov bosqichi, o'zbek tili metodikasi, tahrir ko'nikmalari.*

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме формирования навыков литературного редактирования у будущих учителей узбекского языка и литературы. Отсутствие отдельной дисциплины в этой области и различный уровень базовых знаний и навыков студентов создают трудности в их подготовке к требованиям новых учебников и учебных программ. Цель статьи - предложить комплексную диагностическую методику, направленную на решение данной проблемы, предназначенную для определения начального уровня студентов в области литературного редактирования, а также методику целевого подготовительного этапа, основанного на результатах диагностики. Предлагаемый подход призван способствовать повышению профессиональных компетенций и улучшению качества образования студентов направления узбекского языкового образования и узбекской филологии.

Ключевые слова: *литературное редактирование, обучение узбекскому языку, педагогическая диагностика, подготовительный этап, методика узбекского языка, навыки редактирования.*

Abstract. This article addresses the issue of developing literary editing skills in future Uzbek language and literature teachers. The absence of a dedicated course in this field and the varying levels of students' foundational knowledge and skills create challenges in preparing them to meet the requirements of new textbooks and curricula. The article aims to propose a comprehensive diagnostic methodology designed to address this problem by determining students' initial proficiency in literary editing, as well as a methodology for a targeted preparatory stage based on the diagnostic results. The proposed approach is intended to enhance the professional competencies and improve the quality of education for students in Uzbek Language Education and Uzbek Philology programs.

Keywords: *literary editing, Uzbek language teaching, pedagogical diagnostics, preparatory stage, Uzbek language methodology, editing skills.*

Matn savodxonligi va uni tahrirlash ko'nikmalariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanib, axborot oqimi ortgani sari



har qanday sohada aniq, mantiqli va ravon matnlar yaratish zarurati kuchaymoqda. Bu holat ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Umumta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturi loyihasi va yangi avlod darsliklariga [0], ijod maktablarining ona tili fanidan ta'lim dasturi va darsliklariga [0] matn tahriri bilan bog'liq mavzularning kiritilishi bejiz emas. Bu yangilik bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ham jiddiy talablar qo'yadi: ular adabiy tahrir malakasiga ega bo'lishdan tashqari bu muhim ko'nikmalarni o'quvchilarga samarali o'rgata olishlari ham zarurdir.

Ayni paytda bu borada jiddiy kamchilik va nomuvofiqliklar bor. Eng asosiy muammolardan biri – oliy ta'limda o'zbek tili ta'limi va o'zbek filologiyasi yo'nalishlari uchun adabiy tahrirga oid fanning o'quv rejalarida mavjud emasligidir. Talabalar asosan yozma savodxonlik, nutq madaniyati, yozma nutq kabi o'quv fanlari :rasida tahrirga oid ayrim bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin, ammo bu tahrir malakasini tizimli va chuqur egallash, kelajakda tahrirni o'rgatish uchun zarur bo'lgan metodik kompetensiyalarni shakllantirish uchun yetarli emas.

Ikkinchi jiddiy muammo – talabalarda adabiy tahrirni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich lingvistik bilim va matn bilan ishlash ko'nikmalari darajasining turlichaligidir. Bu holatning amaldagi o'quv jarayoniga salbiy ta'siri yaqqol seziladi. Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida o'tkazgan maxsus so'rovnomamiz natijalari ham buni tasdiqlaydi. Bir necha savollarga ega ushbu so'rovnomaning "Talabalarining yozish va matn bilan ishlash ko'nikmasi past bo'lsa, bu sizning ish faoliyatingizga qanday ta'sir qiladi?" savoliga respondentlarning 55,2 foizi "Baholash jarayoni uzoq davom etadi, chunki matnlarni tushunish qiyin" deya javob bergan. 54,4 foiz o'qituvchi talabalar yozadigan kurs ishi, diplom ishi va ilmiy maqolalar sifatining pasayishini, 46,4 foizi esa talabalarining ilmiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga ko'proq kuch sarflashga majbur bo'layotganini ta'kidlagan. Bundan tashqari, respondentlarning 44 foizi umumiy o'quv jarayoni samaradorligi pasayishini, 43,2 foizi esa talabalarining ilmiy ishlarini tahrir qilishga ortiqcha vaqt sarflanishini qayd etgan. "Hech qanday ta'sir qilmaydi" javobini tanlaganlar atigi 1,6 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar muammo naqadar keng qamrovli ekani haqida muayyan xulosa beradi. Talabalarining matn yozish va uni tahrirlash borasidagi kamchiliklari ularning o'z o'quv faoliyatigagina emas, o'qituvchilarning ish unumdorligi va butun o'quv jarayoni sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganini aniq ko'rsatadi.

Zarur ko'nikmalarni maxsus fan :rasida shakllantirmayotgan, bu bo'yicha malakaga ega bo'lmagan bo'lajak o'qituvchilarning kelajakda maktab o'quvchilariga tahrirni sifatli o'rgata olish salohiyati katta xavotir uyg'otadi. Afsuski, tahrirni o'rgatishga tayyorlashga yo'naltirilgan, talabalarining bu boradagi darajasini aniqlash va maxsus tayyorgarlikni tashkil etish bo'yicha samarali metodika hali yaratilmagan.



Adabiy tahrir malakalarini shakllantirish, jumladan, bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini bu jarayonga va uni o'rgatishga tayyorlash muammosi bir necha ilmiy yo'nalishlar kesishmasida joylashgan deyish mumkin. Bunda adabiy tahrir nazariyasi va amaliyoti, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, pedagogik diagnostika, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratish talab etiladi. O'zbek tilida mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy ishlar ko'p emas. Matn yaratish va uning tahririga oid tadqiqotlar olib borilgan, biroq tahrirni o'rgatishga tayyorlash masalasi o'rganilgan emas.

Sohaga oid adabiyotlar tahlili adabiy tahrirga oid boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni maqsadli diagnostika qilish, talabalarni tahrir va uni o'rgatishga maxsus tayyorlashga qaratilgan yaxlit metodik tizim hali ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi. Aksariyat tadqiqotlar jurnalistika yo'nalishida hamda tahrir nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan, pedagogika yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar esa ko'proq umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida olib borilgan. Talabalarni tahrir va uni o'rgatishga tayyorlashdagi mavjud bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan aniq diagnostik va tayyorlov metodikasini taklif etmaydi.

Adabiy tahrir shunchaki imloviy va ishoraviy xatolarni tuzatish bilan cheklanmay, matnning mantiqiy qurilishi, uslubiy ravonligi, faktik aniqligi, leksik-grammatik me'yorlarga mosligini ta'minlashga va kommunikativ maqsadga erishishga qaratilgan ko'p qirrali faoliyatdir. Talabalar tahrirning bu keng qamrovli mohiyatini anglashi juda muhim, chunki ular kelajakda o'quvchilarga matnni har tomonlama tahlil qilish va yaxshilashni o'rgatishlari kerak bo'ladi. Tahrirni o'rganish va o'rgatish kishida matn yaratish ko'nikmalarini ham yaxshilaydi. Tahrirni o'rgatish orqali talabalarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan [0: 159] va bu amaliyotda isbotini topgan.

O'zbek tili ta'limi va o'zbek filologiyasi yo'nalishi talabalari nafaqat matnni tahrirlay olishi, balki tahrir jarayonini, uning qoidalari va usullarini o'quvchiga tushuntira olishi va o'rgata olishi kerak. Albatta, bu yo'nalish talabalaridan professional muharrirning malakasi talab etilmaydi, biroq ular tahrir ta'limi uchun yetarli kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Bunday ko'nikmalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– Chuqur lingvistik bilimlar. Talaba o'zbek tili grammatikasi, adabiy til me'yorlarini yaxshi bilishi, bilimlaridan amalda foydalana olishi kerak.

– Matnni tahlil qilish ko'nikmalari. Bunda matnning umumiy mazmuni, mantig'i, uslubini anglash, bu bo'yicha xatolarni aniqlash layoqati tushuniladi.

– Metodik tayyorgarlik. Talaba tahrirni o'quvchi yoshiga mos tarzda o'rgatish, mashqlar tuzish, baholash bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi zarur.

– Tipik xatolarni bilish. Bunda o'quvchilarning yozma nutqida ko'p uchraydigan xatolarni aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsata olish salohiyati nazarda tutiladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchilarning boshlang'ich bilim va ko'nikmalarini aniqlash, ularni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash muhim. Diagnostika ta'lim jarayonini individuallashtirish, differensial



yondashuvni qo'llash, mavjud bo'shliqlarni aniqlab, ularni bartaraf etishga imkon beradi. Adabiy tahrir – murakkab ko'nikma, uni shakllantirishda diagnostik tahlilga asoslanish ta'lim jarayoni tartibli kechishi va ko'zlangan maqsadga erishishda muhimdir.

Tadqiqot :rasida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari va umumiy kuzatuvlar oliy ta'lim talabalari, jumladan, bo'lajak filolog-o'qituvchilar ham matn yaratish va tahrirlashda imlo va punktuatsiya, so'z tanlash, uslubiy ravonlik, mantiqiy izchillik bilan bog'liq jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Bu qiyinchiliklar ko'pincha maktab davrida o'zlashmay qolgan bilim va ko'nikma bo'shliqlarining natijasi bo'lib, ularning mavjudligi adabiy tahrirni o'rgatishdan oldin aniq diagnostika va maxsus tayyorlov ishlarini rejalashtirishni taqozo etadi.

Ushbu holatning amaliy isboti sifatida ilmiy tadqiqotimiz :rasida Toshkent shahri, Farg'ona va Navoiy viloyatlaridagi oliy ta'lim muassasalarining ona tili va adabiyot ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 196 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarini keltirish mumkin. Talabalarga ona tili darsliklaridan olingan hikoya, tasviriy va muhokama matnlaridagi turli darajadagi (imloviy, punktuatsion, qo'shimcha, yordamchi so'z, so'z va ibora, gap) xatolarni topish va tuzatish topshirig'i berildi. Talabalar jami 588 ta matnni tahrir qildi. Ular matnlarga jami 10 175 tuzatish kirgan bo'lib, tuzatishlarning 9054 tasi to'g'ri, 1121 tasi yanglish tuzatishlardir. Natijalar tahlili talabalarining tahrir bo'yicha ko'nikmalari kutilgan darajadan ancha pastligini ko'rsatdi. Jumladan:

Umumiy aniqlik darajasi past. Talabalar kiritgan jami tuzatishlarning sezilarli qismi (1121 ta yoki 11% atrofida) xato tuzatish bo'lib chiqdi. To'g'ri tuzatishlar bo'yicha to'plangan o'rtacha ball (52) maksimal ko'rsatkichning atigi 22,8 foizini tashkil etdi. Yanglish tuzatishlar hisobga olinib, sof natija hisoblanganda bu ko'rsatkich 20,25 foizgacha tushadi. Demak, talabalar o'zlaridagi tahrir imkoniyatlarining beshdan bir qismini zo'rg'a namoyon eta olishmoqda. Talabalarining matn yozish va uni qayta ishlash ko'nikmasi pastligi rus tadqiqotchilarining tajribalarida ham kuzatilgan. Jumladan, zamonaviy talabalar matnlarni ishtiyoq bilan yozmaydi, o'z matnlaridagi yoki tahrir uchun taklif qilingan qo'lyozmalardagi xatolarni ko'pincha ko'rmaydi [0: 32]. Bu jihat talabalarining bilim-ko'nikmalari va qiziqishlariga tashxis qo'yib olish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ko'nikmalardagi nomutanosiblik. Talabalar eng ko'p imloviy xatolarni (65% to'g'ri tuzatish) va qo'shimchalar bilan bog'liq xatolarni (31% to'g'ri tuzatish) topishga muvaffaq bo'lgan. Biroq punktuatsiya bo'yicha jiddiy muammolar mavjud: bu turdagi xatolarni to'g'ri topish ko'rsatkichi (taxminan 30%) nisbatan past bo'lishi bilan birga kiritilgan barcha yanglish tuzatishlarning yarmidan ko'pi (56,1%) aynan punktuatsiyaga oid. Bu talabalarining tinish belgilarini qo'llash qoidalarini puxta bilmasligini va chalkashtirishini ko'rsatadi.

Murakkab darajalardagi natijalar sezilarli darajada past. So'z va iboralarni tanlash va qo'llash bilan bog'liq xatolarni topish darajasi juda past (4,3%). Eng



achinarlisi, gap darajasidagi sintaktik va mantiqiy xatolarni tajriba-sinovda qatnashgan yuzlab talabalardan faqat bittasi aniqlay olgani (0,5%) bo'lajak o'qituvchilarning matnni yaxlit tahlil qilish ko'nikmasi deyarli shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Hatto eng yaxshi natija ko'rsatgan talaba ham maksimal ballning atigi 52,5 foizini to'play olgani, ishtirokchilarning faqat 4 nafari 100 balldan yuqori natija qayd eta olgani umumiy saviyadagi jiddiy oqsoqlikni tasdiqlaydi.

Demak, o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarining adabiy tahrirga oid boshlang'ich ko'nikmalari yetarli emasligini, ularda imlo va punktuatsiya, leksik-stilistik va sintaktik tahlil bo'yicha jiddiy bo'shliqlar mavjudligini empirik jihatdan isbotlaydi. Bu esa talabalarni adabiy tahrir ko'nikmasini egallash va kelajakda o'rgatishga tayyorlashdan oldin mavjud bilim va ko'nikmalarini aniq tashxislash hamda maqsadli tayyorlov bosqichini tashkil etish naqadar zarur ekanini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asosan xulosa qilsak, bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarining adabiy tahrirga oid boshlang'ich tayyorgarligi bir tekis bo'lmaydi va tizimli yondashuvni talab etadi. Talabalarni ushbu muhim kompetensiyani egallashga va kelajakda o'rgatishga samarali tayyorlash uchun birinchi navbatda ularning mavjud bilim darajasi va ko'nikmalariga tashxis qo'yish zarurati yuzaga keladi. Bunday diagnostika har bir talabaning hamda dars o'tiladigan guruhning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, adabiy tahrir uchun zarur bo'lgan minimal tayanch bilim va ko'nikmalar mavjudligini baholash, keyingi tayyorlov bosqichi uchun maqsadli yo'nalishlarni belgilash, talabalarning o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalana olish darajasini aniqlash, kelgusida alohida talaba yoki guruhga nisbatan maxsus yondashuv tanlash kabilarga xizmat qiladi.

Diagnostika jarayonida bir qator muhim yo'nalishlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar baholanishi zarur. Masalan, imlo savodxonligi, punktuatsion savodxonlik (o'tkazilgan tajriba-sinovlar bu sohada jiddiy muammolar borligini ko'rsatdi), leksik-grammatik me'yorlarga rioya qilish (so'z tanlash, morfologik me'yorlar), oddiy uslubiy xatolarni payqay olish va bartaraf etish, shuningdek, matn mantig'i va bog'lanishini baholash (tajriba-sinov bu yo'nalish eng zaif nuqta ekanini ko'rsatdi) kabilar kiradi. Diqqat-e'tibor o'tkirligi va kuzatuvchanlik ham baholanishi maqsadga muvofiq. Sanalgan jihatlarni kompleks baholash uchun bir necha vositalar majmuasidan foydalanish taklif etiladi. Jumladan:

Lingvistik bilimlar testini o'tkazish mumkin. U talabalarning imlo, punktuatsiya, leksik va grammatik qoidalarga oid nazariy bilimlarini obyektiv baholashga xizmat qiladi. Test savollari ko'p uchraydigan, ikkilantiradigan murakkab holatlarga qaratilishi, talabaning qoidalarini bilish darajasini aniqlashga yordam berishi zarur. Bu usulda moslashuvchan (adaptiv) testlardan foydalanish ham mumkin [0]. Bunda talaba testlarni yaxshi ishlayotgan yo'nalishida davom ettiradi, bir-ikki marta topa olmagan yo'nalishidagi savollar



qayta berilmaydi. Ammo moslashuvchan testlardan foydalanish uchun katta testlar banki va dasturiy ta'minot kerak bo'ladi.

Amaliy tahrir topshirig'i talabalarning nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish, matndagi xatolarni aniqlash va ularni to'g'ri tuzata olish ko'nikmasini baholashga mo'ljallangan. Talabalarga turli uslubdagi va turli tipdagi xatolar maxsus kiritilgan kichik hajmdagi matnlar taqdim etiladi. Topshiriqning muhim jihati – talabalar sodda xatolarni ham, murakkab xatolarni ham tuzatishi kerak. Yuqorida tilga olingan tajriba-sinov ishlarida aynan shu ko'rinishdagi topshiriqlardan foydalanildi. Dars jarayonida dastlabki ikki yoki uchta yozma topshiriq natijalarini tezkor baholash ham o'qituvchiga talabalardagi ko'nikmalarining kuchli va zaif tomonlari haqida muhim diagnostik ma'lumot bera oladi [0]. Bundan tashqari, pedagoglar matn yozish va tahrir bilan bog'liq sinov ishlarida talabaning mavzuni rejalashtirishi va tahrirlash ko'nikmalarini namoyon eta olish qobiliyatiga ham e'tibor qaratadi [0].

Og'zaki so'rovlar tezkor fikr-mulohaza olish va talabalarning boshlang'ich bilimlarini baholashning samarali usulidir [0]. Og'zaki so'rov jarayonida o'qituvchi talabalarga tahrir asoslari bo'yicha savollar beradi, bu esa ularning nazariy materialni tushunganlik darajasini tez tekshirib olish imkonini beradi. Bu usul sodda, baholash natijalarini bevosita dars davomida muhokama qilish mumkin. Biroq og'zaki savol-javob :m ham barcha talabalarni qamrab ololmasligi, natijada baholashda subyektivlikka yo'l qo'yilishi ehtimoli bor.

Jarayonni bevosita kuzatish va tahlil qilish ham samarali. Tadqiqotchilar fikricha, talabalar matn bilan ishla ishlash jarayonida bosib o'tadigan qadamlar va ular qo'llaydigan strategiyalarni kuzatish baholash uchun juda qo'l keladi [0].

O'zini o'zi baholash anketasidan ham foydalanish mumkin. So'rovnoma orqali talabalarning til savodxonligi, matn bilan ishlash ko'nikmalari, tahrirga bo'lgan munosabati va qiziqishi haqidagi subyektiv qarashlarini, o'ziga bo'lgan ishonch va motivatsiya darajasini aniqlash mumkin.

Shu kabi diagnostik metodikalar orqali to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish talabalarning adabiy tahrirga tayyorgarlik darajasi haqida ancha to'liq, obyektiv va ko'p qirrali tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Olingan natijalar keyingi bosqich – talabalarni maqsadli tayyorlash mashg'ulotlarini samarali rejalashtirish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.

O'tkazilgan diagnostika sinovlarining natijalari talabalarning adabiy tahrirga tayyorgarlik darajasini aniqlash va keyingi qadamlarni belgilash uchun asos bo'ladi. Natijalarni tahlil qilishda kompleks yondashuv qo'llash xulosalarning ishonchliligini oshiradi, masalaga turli rakurslardan qarash va to'g'ri to'xtamga kelishga zamin yaratadi. Kompleks yondashuv deganda turli tahlil usullarini qo'llash nazarda tutilyapti. Masalan, natijalar miqdoriy jihatdan tahlil qilinadi, bunda o'rtacha ko'rsatkichlar, ballarga e'tibor qaratiladi. Sifat tahlilida xatolarning turlari, yanglish tuzatishlar e'tibor markazida bo'ladi. Korrelyatsion tahlil esa turli diagnostik vositalar natijalarini o'zaro taqqoslash, nazariya va amaliyot uyg'unligi, o'z-o'zini baholashning xolisligi kabilarni qamrab oladi. Bunday tahlil natijasida talabalarda eng ko'p uchraydigan tipik



xatolar va qiyinchiliklar aniqlanadi hamda o'quv jarayonini tarmoqlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi. Yuqorida tilga olingan tajriba-sinovda imlo va punktuatsiya, qo'shimcha, yordamchi so'z, so'z qo'llash va gap darajasidagi muammolar yuzaga chiqdi, bu tipik xatolarni aniqlashga misol bo'la oladi. O'quv jarayonini tarmoqlashtirish diagnostika natijalariga ko'ra kichik guruhlar tashkil etish, dars va mashg'ulotlarni guruhlarining bilim-ko'nikmalariga mos shaklda tashkil etishdir.

Aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish, talabalarni adabiy tahrirni o'zlashtirish va uni o'rgatishga tayyorlash maqsadida maxsus tayyorlov bosqichini tashkil etish zarur. Bu bosqich mavjud filologik fanlar integratsiyasida yoki qo'shimcha mashg'ulotlar rasida amalga oshirilishi mumkin. Bunda quyidagi asosiy metodik yo'nalishlar qamrab olinishi kerak:

- maqsadli lingvistik ta'lim – diagnostikada aniqlangan muammoli imlo, punktuatsiya va grammatika qoidalari bo'yicha interaktiv metodlarga asoslangan takrorlash va mustahkamlash ishlarini olib borish, bunda "tahrirni didaktik jihatdan to'g'ri o'qitish o'qituvchidan talabalar bilan maqsadli va tizimli ishni tashkil etishni talab qiladi, bu esa maxsus nazariy va metodik tayyorgarliksiz mumkin emas" [0: 108];

- leksik-uslubiy kompetensiyani rivojlantirish – so'z tanlash, uslubiy g'alizliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar olib borish;

- tahrirning asos tushunchalarini o'zlashtirish – tahrirning maqsadi, turlari va asosiy belgilariga oid minimal zaruriy ma'lumotlarni berish;

- matnni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish – turli darajadagi matn namunalarini tahlil qilish, taqqoslash va baholash orqali muharrirga xos ko'zqarashni rivojlantirish;

- hamkorlik va baholash amaliyotini joriy etish – talabalarni kichik guruhlarda bir-birlarining ishlarini tahlil va tahrir qilishga, konstruktiv fikr bildirishga o'rgatish. Fikr-mulohaza taqdim etishning maqbul yo'li [0: 708] bo'lgan o'zaro tahrir usuli talabalarining tahrir va matn yozish ko'nikmalarini o'stirishi [0: 69] amaliyotga ko'p bor isbotini topgan.

Ushbu tayyorlov bosqichi talabalarining adabiy tahrirga oid poydevor bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularda ushbu faoliyatga nisbatan motivatsiya va ishonchni oshirish hamda bo'lajak o'qituvchi sifatida zarur bo'lgan dastlabki metodik zaminni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida bir necha muhim jihatlarni qayd etish mumkin. Ayni paytda oliy ta'limda bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarining adabiy tahrirga oid kompetensiyalarini shakllantirishda ularning boshlang'ich tayyorgarligi turlicha ekani va bu yo'nalishda maxsus fanning yo'qligi jiddiy metodik muammo bo'lib turibdi. Nazariy tahlil, so'rovnoma va tajriba-sinov natijalari talabalarda punktuatsiya, leksik-uslubiy me'yorlar va matnni mantiqiy tahlil qilish bo'yicha sezilarli kamchiliklar mavjudligini tasdiqladi. Maqolada bu muammoni hal etish uchun talabalarining boshlang'ich bilim va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan kompleks tashxis tashkil etish tartibi va maqsadli tayyorlov bosqichining



metodik asoslari taklif etildi. Tayyorlov bosqichi lingvistik bilimlarni kengaytirish va qo'llash, leksik-uslubiy va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish, tahrirning asos tushunchalarini o'zlashtirish hamda o'zaro baholash amaliyotini joriy etishni o'z ichiga olishi ko'rsatib o'rildi.

Taklif etilayotgan yondashuv o'quv jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish, ularni matn tahririga ruhlantirish va bo'lajak kasbiy faoliyat uchun zarur poydevor yaratishga qaratilgan. Bunday chora-tadbirlar kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Cassandra L. Peer Editing: A Comprehensive Pedagogical Approach to Maximize Assessment Opportunities, Integrate Collaborative Learning, and Achieve Desired Outcomes // Nevada Law Journal. 2011. Vol. 11:667. 667–717 p.
2. Diagnostic Assessment Tools in English // Department of Government Services of The State of Victoria. URL: <https://www.schools.vic.gov.au/diagnostic-assessment-tools-english> (accessed: 30.04.2025).
3. Isaacson S. Simple Ways to Assess the Writing Skills of Students with Learning Disabilities // Reading Rockets. URL: <https://www.readingrockets.org/topics/assessment-and-evaluation/articles/simple-ways-assess-writing-skills-students-learning> (accessed: 29.04.2025).
4. Mahmud Sa'diy (1939-2019) // Ziyouz.uz. URL: <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/mahmud-sadiy/> (murojaat sanasi: 01.05.2025).
5. Mlundi S. Effectiveness of editing and proofreading skills in improving academic writing of law students // Anatolian Journal of Education. 2024. Vol. 9, № 2. 159–170 p.
6. Ona tili fani Milliy o'quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 215 b. ; Ona tili: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b. ; Ona tili: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.; Ona tili: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.; Ona tili. 5-sinf (I qism): darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.; Ona tili. 5-sinf (II qism): darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 160 b.
7. Ona tili fanidan ta'lim dasturi (ijod maktablari uchun). – Toshkent: Prezident ta'lim muassasalari agentligi, 2021. – 126 b. ; Ona tili (2-qism): 7-sinf uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2023. – 160 b.; Ona tili (2-qism): 8-sinf uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Prezident ta'lim muassasalari agentligi, 2024. – 150 b.
8. Winarto A. Peer and Self Editing Strategies to Improve Students' Writing Skill // JEELS (Journal of English Education and Linguistics Studies). 2018. Vol. 5, No. 1. 49–71 p.
9. Модуль 2. Виды, формы и способы контроля и оценки результатов обучения // Северо-Енисейский детско-юношеский центр. URL: https://североенисейский-дую.рф/wp-content/uploads/2021/02/Modul-2_Vidy-formy-sposoby-kontrolya-i-otsenki-rezultatov-obucheniya_Lektsii.pdf (дата обращения: 30.04.2025).
10. Мосунова Л. А. Пути развития редакторского искусства // Библиосфера. 2016. № 4. С. 107–111.
11. Суворова Н. Н. Система оценивания творческих компетенций студентов при преподавании стилистики русского языка // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2021. № 11. С. 31–42.
12. Формирующие методы оценивания // School of Education. URL: <https://educationschool.ru/formative-assessment-methods> (дата обращения: 25.04.2025).



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillovna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

